

O'ZBEKISTONDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Lapasov Muxammadsodiq Akramjon o'g'li

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi

Islamshunoslik yo'nalishi 3 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada vijdon erkinligi, mustaqillikdan so'ng din va davlat o'rtasidagi munosabatlarda tub o'zgarishlar, inson huquqlari, din va davlat munosabatlarini yaxshilash borasida marhum prezidentimiz I.A.Karimovning farmonlari hamda muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning say-harakatlari haqida qisqacha so'z boradi.

Kalit so'zlar: din va davlat, demokratiya, O'zbekiston, BMT, vijdon erkinligi, inson huquqlari, I.A.Karimov.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zRes. Konstitutsiyasi 31-modda

O'zbekiston o'z milliy mustaqilligi tufayli milliy urf-odatlarini, diniy qadriyatlarini tikladi. Buning misolida—Navro'z bayramidan diniy tamg'a olib tashlanganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'naviy hayotimizdagi diniy bayramlar, hayit kunlari respublikamizda umumxalq bayrami sifatida nishonlanib kelinmoqda. Ma'naviy hayotda islam dinining alohida o'rni bor. Prezidentimiz I.A.Karimov-ning 1992-yil 7-martdagি farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil qilindi. Shu yili 27-martda Prezidentimizning "Ramazon hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. O'zbekiston - dunyoviy

davlat. Demak, dunyoviy davlatlarda amal qiladigan davlat va din munosabatlari prinsiplari O‘zbekistonda ham amal qiladi. Bu prinsiplar mohiyatini yanada teranroq tushunish uchun BMTning Inson xuquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, mamlakatimiz Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998-yil 1-maydagi yangi tahrirda qabul qilingan 23 moddadan iborat “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonun bilan batafsil tanishib chiqmoq darkor. Vijdon erkinligi demokratiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham BMTning 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 18-moddasida “har bir inson vijdon va din erkinligi huquqiga egadir” deb yozilgan. Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda vijdon erkinligi, din, diniy tashkilotlar va dindorlarga nisbatan davlat siyosatida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bu o‘zgarishlarning eng ko‘zga ko‘ringan, asosiy 10 tasini quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

1. Vijdon erkinligi masalasining, davlat bilan diniy tashkilotlar o‘rtasida munosabat masalasining mustahkam huquqiy negizi yaratildi. Bu huquqiy negiz – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonundir.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunda fuqarolar va diniy tashkilotlar uchun kafolatlangan huquqiy imkoniyatlar to‘la ro‘yobga chiqarilmoqda. Dinning mavqeyi tiklandi, barcha diniy uyushmalarga, jamoalarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko‘rsatish imkoiyati yaratilmoqda.
3. O‘zbekiston hukumati musulmonlarning xohish istaklarini inobatga olib, islam dunyosining muqaddas yodgorliklarini, tarixiy obidalarini diniy tashkilotlari ixtiyoriga o‘tkazdi.
4. Yangi masjidlar ochildi, eskilarini ta‘mirlandi. Masjidlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi, hamda davlat oldidagi mas‘uliyati belgilandi.
5. Diniy soha vakillari uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Diniy tashkilotlarga o‘z davriy nashrlarini chop etish yo‘lidagi to‘sqliar olib tashlandi. Diniy adabiyotlarning chop etilishi sezilarli ko‘paydi. Xususan, Qur’oni Karim va hadislar o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.
6. Hamyurtlarimiz hajga va umraga - Makka va Madina ziyoratiga,

diniy farzni ado qilishga borib kelmoqdalar. 7. Respublikamizda muqaddas Ramazon va Qurbon hayitlari bayram kunlari deb e‘lon qilindi. 8. Diniy tashkilotlar xalqaro aloqalarni kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. 9. Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi. Yurtimizda Toshkent islam universiteti keyinchalik prezidentimiz tashabbuslari bilan O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasiga aylantirildi, shuningdek, O‘zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi, hamda Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Moturudiy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari ochildi. 10. Mashhur din ulamolarining xotiralari ulug‘lanmoqda, ularning tavalludiga bag‘ishlangan yubileylar va anjumanlar katta tayyorgarlik bilan keng ko‘lamda nishonlanmoqda.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarni yana davom ettirishimiz mumkin. Sababi bugungi kunda ham muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan din va davlat o‘rtasidagi munosabatlarga bag‘ishlangan islohotlar va tashkiliy ishlар juda yaxshi samara berib kelmoqda hamda xalq manfaatlari uchun xizmat qilmoqda. Bugungi kunda har qanday milliy tiklanish va milliy rivojlanishning asosi bo‘lgan ma‘naviy meros, urf-odatlar, an‘analar, yuksak qadriyatlar, tarixiy xotira xalqimizga qaytarildi. Milliy o‘zligini, huquqlarini tobora teranroq anglab borayotgan xalqimiz uchun buyuk kelajakni barpo etish yo‘lida bu boy imkoniyatlardan foydalanish, barcha moddiy va ma‘naviy boyliklarni milliy rivojlanishga, O‘zbekistonda demokratik-huquqiy jamiyat qurish ishiga yo‘naltirishga safarbar etish, menimcha maqsadga muvofiq ishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O‘zbekiston», 2007.
2. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni (yangi tahriri) / O‘zbekistonning yangi qonunlari. 19-son. T., Adolat, 1998.

3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik
shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: — O‘zbekiston, 1997-yil.
4. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. T.
“O‘zbekiston”, 1996-yil.
5. Azon.uz